«T A S D I Q L A N G A N»
O'zbekiston Respublikasi QvaSX Vazirligi
Davlat Veterinariya Bosh Boshqarmasi
tomonidan 3 mart 2016 yilda.
DVBB qoshidagi ITK 28.11.2005 yildagi
№18-sonli bayonnoma.

PRAZIKVANTEL TABLETKA PREPARATINI QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA (ITLAR, MUSHUKLAR VA BOSHQA HAYVONLARNI GELMINTLARDAN TOZALASH)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

1.1 Prazikvantel - antigelmint preparati bo'lib, har bir tabletkada ta'sir etuvchi moddasi sifatida 50 mg prazikvantel va yordamchi moddalar mavjud.
1.2 Prazikvantel - 5, 10, 25, 50, 100 tadan tabletka polimer paketga va bankalarga yoki individual o'ram (blister) ga qadoqlangan holda chiqariladi.
1.3 Preparat ehtiyotlik bilan (B ro'yxati) ishlab chiqaruvchining o'ramida, yorug'likdan himoyalangan joyda, namlik tushishidan asrab, minus 8°C +25°C gacha haroratda saqlanadi.
1.4 Preparatnig yaroqlilik muddati ishlab cchiqarilgan sanasidan boshlab - 3 yil.

2. FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

2.1 «Prazikvantel» – keng doirada ta'sir etuvchi antigelmint preparati, hayvonlar exinokokkozi, difilobotriozi, dipilidozi, gidatigerozi, multitseptozi va oriyentobilxartsiozi kasalliklariga qo'llanadi.
2.2 Preparatning ta'sir etish mexanizmi fumaratreduktaza ta'sirini bosishda, hujayra membranalari o'tkazuvchanligi va nerv-mushak innervatsiyasi buzilishidan iborat, bu esa gelmintlarning falajiga va o'limiga olib keladi.
2.3 Preparat issiq qonli hayvonlar uchun kam zaharli (oq sichqonlar uchun LD50 og'iz orqali ichilganda 2650 mg/kg ni tashkil etadi). Tavsiya etilgan dozalarda mahaliy achishtiruvchi, embriotoksik, teratogen va sezgirlikni oshiruvchi xususiyatlariga ega emas.

3. QO'LLASH TARTIBI

3.1 Prazikvantel exinokokkoz, difilobotrioz, dipilidoz, gidatigeroz, multitseptoz va oriyentobilxartsioz holatida hayvonlarni gijjalardan tozalash uchun bir martta ishlatiladi.
3.2 Prazikvantel preparatining tabletkalari hayvonlar uchun ichiga, og'iz orqali, avvaldan och qoldirilmagan holda, bir martta, individual tarzda qo'llanadi.
Preparat xayvonlarga bevosita og'iz ichiga (til tagiga), yoki go'shtga, kalbasaga o'ralgan holda, ayrim hollarda maydalab yem bilan aralashtirib beriladi.
3.3 Itlar exinokokkoz gelmintlardan tozalash profilaktikasi, dekabr oyidan aprel oyigacha har 45 kunda, may oyidan noyabr oyigacha har 30 kuda amalga oshiriladi.
3.4 Qo'llash miqdori: Itlarga, mushuklarga va boshqa etxo'r hayvonlarga 10 kg tana vazniga 1 ta tabletka, bu esa 1kg tana vazniga 5 mg ta'sir etuvchi modda prazikvantekga to'g'ri keladi.
3.5 Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar yo'q. Nojo'ya ta'sirlari kuzatilmagan. Boshqa dori vositalari bilan nomuvofiqligi ma'lum emas. Prazikvantel preparatini boshqa hamma davolash turlari bilan birgalikda olib borish mumkin.
3.6 Oziq-ovqat mahsulotlari olinadigan hayvonlarga preparatni qo'llash mumkin emas.

4. E'TIROZLARNI BILDIRISH TARTIBI

4.1Ishlov berilgan hayvonlarda asoratlar paydo bo'lgandava preparatninig ta'siri ushbu yo'riqnoma talablariga muvofiq kelmagan hollarda uni qo'llash to'xtatiladi, bu haqida O'zbekiston veterinariya preparatlari davlat ilmiy-nazorat laboratoriyasiga (O'zDINL) quyidagi manzil bo'yicha habar beriladi: 100178, Toshkent shahar, Qora-qamish ko'chasi, 1a uy. Tel./faks: 228-76-14, 229-30- 47. E-mail: vpinl@qsxv.uz. Shu bilan birgalikda laboratoriya manziliga, tegishli ochilmagan preparat o'ramlari va preparatning yo'riqnomaga nomuvofiqlik tavsifi batafsil bayon etilgan xat jo'natiladi.

Ishlab chiqaruvchi:
O'zbekiston-Buyuk Britaniya-Rossiya Qo'shma Korxonasi
«O'ZBIOKOMBINAT» MChJ
140532, O'zbekiston Respublikasi,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani,
«Namuna» QFY, O'rta - Charxin mahallasi,
Tel: +998 (95) 500 8161
Sotuv bo'limi: +998 (95) 509 0500
www.biokombinat.uz
info@biokombinat.uz

TS 00483044-03:2016

biveco®
biveco.com